

## FRANSIYA, BELGIYA VA QIRG‘IZISTON DAVLATLARIDA POLITSIYA XODIMLARINING HUQUQLARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH AMALIYOTI

**Azizov Davron Abduganiyevich**

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi masalalari  
ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi boshlig‘i o‘rinbosari

### ANNOTATSIYA

Maqolada Fransiya, Belgiya va misolida rivojlangan G‘arb davlatlarida hamda Qirg‘iziston misolida Osiyo davlatida politsiya xodimlarining huquqlari, shuningdek, mazkur huquqlarni amalga oshirishda davlatlarning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari tizimidagi farqlar hamda ushbu organlar o‘rtasida ishlarni o‘zaro muvofiqlashtirish jarayoni yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar :** politsiyachi, jandarm, kasb siri, professionallik, axloq kodeksi, iyerarxiya, xizmat vazifasi, shaxsiy dahlsizlik

### RIGHTS OF POLICE OFFICERS IN FRANCE, BELGIUM AND KYRGYZSTAN AND THE PRACTICE OF THEIR IMPLEMENTATION

#### ABSTRACT

The article highlights the rights of police officers in developed Western countries such as France, Belgium and in Asia in the case of Kyrgyzstan, as well as the differences in the system of legislative and executive bodies of the countries in the implementation of these rights, as well as the process of mutual coordination of work between these bodies.

**Key words:** policeman, gendarme, professional secrecy, professionalism, code of ethics, hierarchy, duty, personal integrity

Har qaysi davlatning huquq-tartibot organlari orasida politsiya xodimlarining o‘rni alohida. Zero fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va boshqa qonuniy manfaatlari, shu jumladan jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash politsiya xodimlari oldida turgan asosiy yo‘nalishlar hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda mazkur xodimlarning o‘z xizmat vazifalari doirasida belgilangan huquq va majburiyatlari va ularni amalga oshirish alohida tahlil va o‘rganishni talab qiladi.

**Fransiya** Ichki ishlar vazirligi tizimida Milliy politsiya va Jandarmeriya o‘z axloqiy kodeksiga ega. Ushbu kodeks inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasiga,

Konstitutsiya, xalqaro konvensiyalar va qonunlarga qat'iy rioya qilgan holda politsiya vazifalarini bajarishni nazarda tutadi. Shu bilan birga u ichki xavfsizlik kuchlari va aholi o'rtasidagi aloqani mustahkamlashni, shu jumladan, uni politsiya va jandarmeriyaning tashvishlari markaziga qo'yishni maqsad qilgan.<sup>76</sup>

Kodeks xavfsizlik kuchlariga o'z harakatlari yoki vazifalari, politsiyachi yoki jandarmga xos bo'lgan majburiyatlari bo'yicha muhim va muqarrar mezonlarni beradi: respublika muassasalariga sodiqlik, halollik, xolislik, odamlarga xizmat vaqtidan tashqarida ham yordam va ko'mak berish; zahiradagi burch, kasb siri va boshqalar.<sup>77</sup> Ushbu tamoyillar va qoidalarning har qanday buzilishi uning muallifini intizomiy jazolarga duchor qiladi, qoidabuzarlik isbotlangan taqdirda esa jinoiy ish yuritishni istisno qilmaydi.

Shuningdek, kodeksda davlatning majburiyatlari, xususan politsiyachilar va ularning qarindoshlarini himoya qilish majburiyati belgilab qo'yilgan. Ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolari o'z vazifalarini bajarish chog'ida jabrlanuvchi bo'lgan xatti-harakatlardan, shuningdek, o'z vazifalariga ko'ra sudda ish yuritishda esa huquqiy himoyadan foydalanadilar.<sup>78</sup>

Politsiya va jandarmeriya harbiylari o'z harakatlarini iyerarxik tuzilmalar doirasida amalga oshiradilar, ya'ni ularning faoliyati subordinatsiyani nazarda tutadi. Mas'uliyatni har bir darajada belgilash uchun iyerarxik zanjirlar aniq belgilanishi kerak. Buyruq beruvchilar o'zlari bergan buyruqlar uchun javob beradilar, shu bilan birga ular bergan buyruqlarining ijrosini nazorat qiladilar. Shu o'rinda hisobot berish xodimlar vazifasining ajralmas qismi bo'lib, iyerarxiya bo'yicha boshliq tomonidan so'ralgan har qanday tushuntirishlarga javob beradi.<sup>79</sup> Shunday qilib, agar u birinchi hisobotni to'liq yoki yetarli emas deb hisoblasa, qo'shimcha ma'lumot talab qilishi mumkin.

Itoatkorlik tamoyili politsiya va jandarmeriyaning to'g'ri ishlashining muhim sharti hisoblanadi. Politsiya va jandarmlar o'zlariga yuklangan vazifalarni ulardan kutilgan professionallik bilan bajarishlari lozim. Biroq, Jinoyat va Mudofaa kodeksining tegishli qoidalariga muvofiq politsiya xodimlari va jandarmlar ochiq-

---

<sup>76</sup> Police nationale. «Déontologie et contrôle.» *Ministère de l'intérieur et des outre-mer*. 2022.  
<https://www.police-nationale.interieur.gouv.fr/Presentation-generale/Deontologie-et-controle>.

<sup>77</sup> Shu yerda.

<sup>78</sup> Défenseur des droits. «Respect de la déontologie des professionnels de la sécurité.» 2022.  
<https://www.defenseurdesdroits.fr/fr/institution/competences/deontologie-securite>.

<sup>79</sup> Centre de connaissances virtuel. «Obligations des policiers.» 2021.  
<https://www.endvawnow.org/fr/articles/803-obligations-des-policiers.html>.

oydin noqonuniy buyruqni bajarishni rad etish huquqiga ega. Politsiyachi va jandarm buyruqni shaxsiy e'tiqodga zid degan bahona bilan bajarishdan bosh torta olmaydi.<sup>80</sup>

Davlat politsiya va jandamlarning ichki xavfsizlik bo'yicha topshiriqlarini bajarish vaqtida va ularga xos kundalik xavf-xatarlarini tan oladi va oqibatlarini o'z zimmasiga oladi. Shunday qilib, davlat ularga, shuningdek, ularning qarindoshlariga kengaytirilgan funksional himoyani taqdim etadi.<sup>81</sup>

Politsiyachi yoki jandarm o'z vazifalarini bajarishda aql-idrokni namoyish etadi. U har qanday sharoitda o'zi duch keladigan har bir vaziyatning xavf-xatarlari va tahdidlarining mohiyatini va harakat qilish muddatini hisobga oladi, unga eng yaxshi huquqiy javobni tanlaydi.

Jinoyat-protsessual kodeksi ma'lum sharoitlarda politsiya va jandamlarga shaxsni tekshiruvdan o'tkazish huquqini beradi, bu esa mohiyatiga ko'ra shaxs erkinliklarini buzadi. Ularni amalga oshirish protsessual asosni mukammal egallashni, ya'ni xushmuomalalik va aql-idrokni talab qiladi.

Xavfsizlik yuzasidan tekshiruv - bu politsiya, jandarmlar va jamoatchilikni himoya qilish chorasi bo'lib, kiyimni kovlash yoki yechishni o'z ichiga olmaydi.<sup>82</sup> Shunga qaramay, u tekshiruvdan o'tadiganlar uchun kishini xafa qiladigan deb hisoblanishi mumkin. Biroq, u shaxsning potentsial xavfliligiga asoslangan obyektiv fikrlarga asoslanadi.

O'z missiyalari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni qidirishda politsiya xodimi yoki jandarm ma'lumot beruvchilarga murojaat qilishi mumkin. Bunday holda, u ikkita kuchning har biri uchun bu borada belgilangan xizmatni bajarish qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu qoidalar asosan sud politsiyasi topshiriqlarini bajarishda qo'llanilsada barcha xodimlariga ham tegishli. Kasbiy amaliyot ma'lumotni foyda yoki tan olishning ba'zi shakllari evaziga yetkazishga tayyor suhbatdoshlar bilan muntazam aloqada bo'lishni talab qiladi.

Amalda, agar ma'lumot beruvchi shaxs bilan aloqa nizom doirasida bo'lmasa (axborot beruvchini ro'yxatdan o'tkazish yoki baholash tartibi), politsiya xodimining o'zi o'rnatgan munosabatlar shaxsiy munosabatlar doirasida tahlil qilinishini bilishi kerak.<sup>83</sup>

---

<sup>80</sup> Ministère de l'Intérieur. «Code de déontologie de la police nationale et de la gendarmerie nationale.» 2014. <https://www.alternativepn.fr/medias/tract/3953-deontologie-de-la-police-nationale-et-de-la-gendarmerie-nationale.pdf>.

<sup>81</sup> Shu yerda.

<sup>82</sup> Dieu François. «Gendarmerie et dualisme policier.» Hal Open Science. 2020. <https://hal.archives-ouvertes.fr/hal-02459666/document>.

<sup>83</sup> Shu yerda.

**Belgiyada** huquqni muhofaza qilish federal politsiya va mahalliy politsiyadan iborat politsiya xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Ikkala organ ham avtonomdir va turli hokimiyatlarga hisobot beradi, lekin bir-birini qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro ko‘mak, ishchi kuchining harakatchanligi va umumiy tayyorgarlik masalalari bo‘yicha bir-biri bilan bog‘langan.

2001-yilda Belgiya politsiyasi tomonidan o‘tkazilgan tub tuzilmaviy islohotlar mutlaqo yangi politsiya tizimini yaratdi. Belgiya parlamentining pedofillarning ketma-ket qotilliklari haqidagi hisobotida politsiyani bu ishlarni tekshirishda beparvolik va malakasizlikda aybladi. Aholining politsiyaga bo‘lgan ishonchi shunchalik katta ediki, butun aholi islohotni zarur deb hisobladi.<sup>84</sup>

Uch sobiq politsiya bo‘linmasi, shahar politsiyasi, Milliy huquqni muhofaza qilish xizmati (Rijkswacht/Jandarmeriya) va sud politsiyasi (prokuraturaga birlashtirilgan) o‘z o‘rnini ikki darajali integratsiyalashgan politsiya xizmatiga bo‘shatib berdi.<sup>85</sup>

Belgiya politsiya xizmatining odob-axloq kodeksi loyihasida politsiya xodimlarining birlashish erkinligi bilan bog‘liq bir qancha qoidalar mavjud. 66-modda qonun hujjatlarida belgilangan chegaralarda ish tashlashda qatnashish; 67-modda kasaba uyushmasiga a‘zo bo‘lish imkoniyatini nazarda tutadi. “Xizmat faoliyatning halolligi va qadr-qimmatini” bobida 26-moddada “Xizmat faoliyatini bajarishdan tashqarida ham xodimlar xizmat vazifalarini bajarishga xavf soladigan, ish majburiyatlarini buzadi va uning qadr-qimmatini pasaytiradigan yoki aholining politsiyaga bo‘lgan ishonchini susaytiradigan har qanday xatti-harakatdan qochishadi.”<sup>86</sup>

Takroriy axloqiy majburiyatlar qatoriga kasbiy maxfiylik kiradi. Shunday qilib, Odob-axloq kodeksi loyihasining 31-moddasida politsiyadan kasbiy sirni saqlash nuqtai nazaridan huquqiy qoidalarni hurmat qilish majburiyati nazarda tutilgan. Darhaqiqat, Jinoyat kodeksining 458-moddasida maxfiy sirni oshkor qilgan har qanday shaxs sakkiz kundan olti oygacha qamoq va yuz yevrodan besh yuz yevrogacha jarima bilan jazolanishi belgilangan.<sup>87</sup> Mazkur sir saqlash majburiyati mutlaq emas; 458-

---

<sup>84</sup> Robert John. «Obligations respectives de la commune et de la police locale.» 2021.

<https://www.uvcw.be/population-etat-civil/vos-questions/art-2827>.

<sup>85</sup> Shu yerda.

<sup>86</sup> Police federale. «Le code de déontologie des services de police.» 2020.

<https://www.police.be/5998/fr/a-propos/police-integree/le-code-de-deontologie-des-services-de-police>.

<sup>87</sup> Police federale. «Le code de déontologie des services de police.» 2020.

<https://www.police.be/5998/fr/a-propos/police-integree/le-code-de-deontologie-des-services-de-police>.

moddada sirni olib tashlashga ruxsat beruvchi ikkita istisno mavjud: sudda ma'lum faktlar va ko'rsatmalar haqida xabar berishning qonuniy majburiyati.

Ushbu sir bilan qamrab olingan ma'lumotlar, shubhasiz, uni tegishli mutaxassisga yetkazgan shaxsning shaxsiy hayotiga tegishli bo'lishi mumkin. Shaxsiy daxlsizlik huquqi Konstitutsiyaning 22-moddasi va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 8-moddasida mustahkamlangan. Politsiya xizmatining odob-axloq kodeksi loyihasining 52-moddasida bu borada shunday deyilgan: "Xodimlar o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga ziyon yetkazmasdan, har bir shaxsning shaxsiy hayotini hurmat qilishi va himoya qilishi shart. Shaxsiy hayotning daxlsizligini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari va Jinoyat qidiruv kodeksi shular jumlasidandir. Ular, ayniqsa, ish sohasida va tergov o'tkazayotgan odamlarning yaqinida keraksiz aralashishdan qochishadi. Shaxsiy hayotga aralashuv juda muhim bo'lsa, politsiyachilar bu aralashuvni juda zarur narsalar bilan cheklaydilar. Ular shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish paytida ham, avtomatlashtirilgan turli xil qayta ishlash operatsiyalari paytida, maslahatlashuv, foydalanish va oshkor qilish paytida, ya'ni shaxsi aniqlangan yoki aniqlanishi mumkin bo'lgan shaxsga nisbatan noo'rin qiziqish va beparvolik ko'rsatishdan tiyiladi."<sup>88</sup>

Shunday qilib, Kodeks shaxsiy daxlsizlik huquqi mutlaq emasligini tasdiqlaydi; u Yevropa konvensiyasining 8-moddasida belgilangan muayyan shartlar asosida buzilishi mumkin: shaxsiy daxlsizlikka aralashish zaruratga qarab qonun bilan ta'minlanishi va milliy xavfsizlik, jamoat xavfsizligi, iqtisodiy farovonlik, tartibsizliklarning oldini olish, jinoiy huquqbuzarliklar, sog'lik yoki axloqni himoya qilish yoki boshqalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan mutanosib bo'lishi kerak.<sup>89</sup>

Binobarin, agar sud kasbiy sirning bekor qilinganligini tan olsa, vaholanki ma'lumotlar shaxsiy hayotga tegishli bo'lsa, buni olib tashlashni nafaqat Jinoyat kodeksining 458-moddasiga, balki, Yevropa konvensiyasining 8-moddasida ko'zda tutilgan shaxsiy daxlsizlikning buzilishiga yo'l qo'yuvchi istisnolarga nisbatan ham asoslashi shart.

Politsiya shuningdek har kimga nisbatan kuch ishlatish layoqati bilan ifodalanishi mumkin. Jismoniy kuch raqibga qarshi yakuniy g'alabani kafolatlash uchun uning nomutanosib yoki noqonuniy ishlatilishini o'z ichiga olgan o'ziga xos dinamikaga ega. Aynan shu yerda Albert Reisning asarlari Egon Bittner asarlariga sezilarli qo'shimcha

<sup>88</sup> Ejustice. «Code de déontologie des services de police.» 2021.

[https://www.ejustice.just.fgov.be/cgi\\_loi/change\\_lg.pl?language=fr&la=F&table\\_name=loi&cn=2006051033](https://www.ejustice.just.fgov.be/cgi_loi/change_lg.pl?language=fr&la=F&table_name=loi&cn=2006051033).

<sup>89</sup> Coure européenne des droits de l'homme. «Droit au respect de la vie privée.» 2021.

[https://www.echr.coe.int/Documents/Guide\\_Art\\_8\\_fra.pdf](https://www.echr.coe.int/Documents/Guide_Art_8_fra.pdf).

bo'lib xizmat qiladi, chunki ular "politsiyaning og'ishini zaruriy, ammo kamdan-kam uchraydigan, ularning ishini tartibga soluvchi bir xil moyillik va ko'nikmalarning aks etishi" deb o'ylashga majbur qiladi.<sup>90</sup>

Albert Reis bugungi kunda ham keng tarqalgan kuzatuvni amalga oshiradi. Ko'pchilik politsiya xodimlari, faktlar buni asoslaydimi yoki yo'qmi, har bir kuch qo'llanganlik holatini muntazam ravishda kuzatib boradi va fuqaro politsiya xodimiga hujum qilgan yoki hibsga olishda qarshilik ko'rsatgan, degan ayblov qo'yadi.

Albert Reisning vazifasi kuch ishlatishning kelib chiqishini politsiya aralashadigan jamoatchilik bilan o'rnatilgan o'zaro munosabatlar orqali tushuntirishdir. Shunday qilib, u haddan tashqari kuch ishlatilganlarning ko'pchiligi politsiya hokimiyatiga ishonchsizlik ko'rsatgan yoki ularning talabini rad etgan - o'tirishdan bosh tortgan, hibsga olishga qarshilik ko'rsatish ... yoki deviant xatti-harakatlar - mastlik, fohishalik holatini ko'rsatgan.<sup>91</sup> Shubhasiz, bu omillar noqonuniy kuch ishlatish holatlarini kuchaytiradi degani emas.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, noqonuniy majburlash politsiya xodimlarining o'ta farqli vaziyatlarda kuch ishlatish layoqatidan ham, ushbu vaziyatlarda ishtirokchilarning xatti-harakatlaridan ham kelib chiqadi. Albert Reiss ehtiyotkorlik bilan politsiya zo'ravonligini kamaytirishning samarali usuli politsiyani professionallashtirishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Bu yerda professional etika asosiy o'ringa chiqadi.

**Qirg'izistonda** militsiya xodimlarining huquq va majburiyatlari "Qirg'iziston huquqni muhofaza qilish organlarida xizmatni o'tash to'g'risida"gi Qonuni hamda Qirg'iziston Ichki ishlar organlarining tartib-intizom ustavida belgilab qo'yilgan. Jumladan, Qonunda quyidagi huquqlar nazarda tutilgan :

- 1) o'zining va oila a'zolarining hayoti va sog'lig'ini, shuningdek mulkini davlat tomonidan himoya qilish;
- 2) davlat pensiya ta'minoti;
- 3) tibbiy yordam;
- 4) o'zini va uning oila a'zolarini uy-joy bilan ta'minlash;
- 5) dam olish;
- 6) pul nafaqalari;
- 7) shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish;

---

<sup>90</sup> Reiss Albert. «Police Use of Force: Individuals, Situations and Organizations.» SAGE. 2022.  
<https://sci-hub.se/https://www.jstor.org/stable/1042763>.

<sup>91</sup> Reiss Albert. «Police Use of Force: Individuals, Situations and Organizations.» SAGE. 2022.  
<https://sci-hub.se/https://www.jstor.org/stable/1042763>.

- 8) o'z xizmat faoliyati natijalari, ish staji, malaka va kasbiy ta'lim darajasi hisobga olingan holda huquqni muhofaza qilish organlarida ko'tarilish;
- 9) ta'lim olish, qo'shimcha kasbiy ta'lim olish, malaka oshirish, malaka oshirish va qayta tayyorlash, shuningdek jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish va yaxshilash;
- 10) o'z tashabbusi bilan ichki tekshiruv o'tkazish;
- 11) bo'ysunish tartibida yuqori turuvchi mansabdor shaxslarga, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlarida xizmat qilish bilan bog'liq nizolarni hal etish yuzasidan yuqori turuvchi organlarga yoki sudga murojaat qilish;
- 12) xizmat vazifalarini bajarish va malaka oshirish uchun huquqni muhofaza qilish organida xizmat ko'rsatish xususiyatlarini hisobga olgan holda tegishli tashkiliy-texnik va sanitariya-gigiyena sharoitlariga ega bo'lish ;
- 13) o'z xizmat vazifalarini bajarishdan bo'sh vaqtlarida, agar bu manfaatlar to'qnashuviga olib kelmasa, siyosiy maqsadlarni yoki diniy xarakterdagi maqsadlarni ko'zlamagan jamoat birlashmalarini tuzish va ularning faoliyatida ishtirok etish;
- 14) egallab turgan lavozimi bo'yicha huquq va majburiyatlarni belgilovchi hujjatlar, lavozimda ko'tarilishda hisobga olinadigan faoliyatni baholash mezonlari, shuningdek shaxsiy faoliyat ko'rsatkichlari bilan tanishish;
- 15) o'z xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborot va materiallarni belgilangan tartibda olish, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organ faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;
- 16) huquqni muhofaza qiluvchi organ belgilagan tartibda shaxsiy ish materiallari bilan, shuningdek shaxsiy ishga ilova qilingan yozma tushuntirishlar, boshqa hujjatlar va materiallar bilan tanishish;
- 17) qurol va maxsus vositalarni olib yurish va saqlash;
- 18) jismoniy kuch, maxsus vositalar, qurollar, qurollar va harbiy texnikani qo'llash;
- 19) huquqni muhofaza qilish organlaridan ixtiyoriy ravishda ishdan bo'shsh;
- 20) Qirg'iziston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lgan hollarda rahbarning og'zaki buyrug'ini yozma ravishda tasdiqlashni talab qilish;
- 21) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi, shuningdek mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish.<sup>92</sup>

---

<sup>92</sup> Министерство Юстиции Кыргызской Республики. «Закон Кыргызской Республики О прохождении службы в правоохранительных органах Кыргызской Республики.» 2022. <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/111956>.

Bundan xulosa qilish mumkinki, Fransiya va Belgiyada politsiya xodimlarining huquq va majburiyatlari ko'proq etika qoidalarini o'z ichiga olgan Axloq kodeksida o'z aksini topadi. Qirg'izistonda esa bundan farqli o'laroq politsiyachilarning huquqlari qonunda aniq bandlar bilan ko'rsatib o'tilgan va mazkur qonun asosida alohida tartib-intizom ustavi mavjud. Biroq, yuqorida sanab o'tilgan davlatlarni bog'lab turuvchi umumiy jihatlardan biri politsiya xodimlarning haddan tashqari kuch ishlatish bilan bog'liq holatlardir. Agarda Yevropada mazkur holatlar tegishli aql markazlari tomonidan o'rganilib, ilmiy yondashuvni amaliyotga joriy etish bilan bog'liq harakatlarni kuzatish mumkin bo'lsa, Qirg'izistonda esa bu kabi yondashuvlar ko'zga tashlanmaydi. Yevropa davlatlaridan qabul qilish mumkin bo'lgan yana bir e'tiborli jihat ulardagi qonun hujjatlariga rasmiy sharhlarning mavjudligi. Bu esa politsiya xodimlarining xizmat faoliyatini olib borishda bir qadar yengillik tug'diradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Centre de connaissances virtuel. «Obligations des policiers.» 2021. <https://www.endvawnow.org/fr/articles/803-obligations-des-policiers.html>.
2. Coure européenne des droits de l'homme. «Droit au respect de la vie privée.» 2021. [https://www.echr.coe.int/Documents/Guide\\_Art\\_8\\_fra.pdf](https://www.echr.coe.int/Documents/Guide_Art_8_fra.pdf).
3. Défenseur des droits. «Respect de la déontologie des professionnels de la sécurité.» 2022. <https://www.defenseurdesdroits.fr/fr/institution/competences/deontologie-securite>.
4. Dieu François. «Gendarmerie et dualisme policier.» Hal Open Science. 2020. <https://hal.archives-ouvertes.fr/hal-02459666/document>.
5. Ejustice. «Code de déontologie des services de police.» 2021. [https://www.ejustice.just.fgov.be/cgi\\_loi/change\\_lg.pl?language=fr&la=F&table\\_name=loi&cn=2006051033](https://www.ejustice.just.fgov.be/cgi_loi/change_lg.pl?language=fr&la=F&table_name=loi&cn=2006051033).
6. Ministère de l'Interieur. «Code de déontologie de la police nationale et de la gendarmerie nationale.» 2014. <https://www.alternativepn.fr/medias/tract/3953-deontologie-de-la-police-nationale-et-de-la-gendarmerie-nationale.pdf>.
7. Police federale. «Le code de déontologie des services de police.» 2020. <https://www.police.be/5998/fr/a-propos/police-integree/le-code-de-deontologie-des-services-de-police>.



8. Police nationale. «Déontologie et contrôle.» Ministère de l'intérieur et des outre-mer. 2022. <https://www.police-nationale.interieur.gouv.fr/Presentation-generale/Deontologie-et-contrôle>.
9. Reiss Albert. «Police Use of Force: Individuals, Situations and Organizations.» SAGE. 2022. <https://sci-hub.se/https://www.jstor.org/stable/1042763>.
10. Robert John. «Obligations respectives de la commune et de la police locale.» 2021. <https://www.uvcw.be/population-etat-civil/vos-questions/art-2827>.
11. Министерство Юстиции Кыргызской Республики. «Закон Кыргызской Республики О прохождении службы в правоохранительных органах Кыргызской Республики.» 2022. <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/111956>.